



CHORVACHILIK TARMOG'IDA KICHIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Eshqulova Hilola

Guliston davlat universiteti
ORCID:0009-0006-3483-7265

Annotatsiya. Sayyoramizda aholi soni shiddat bilan o'sib borayotgan bir vaqtda insonlar oziq – ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi tobora ortib bormoqda. Ko'plab boshqa birlamchi iste'mol mahsulotlari kabi sut ishlab chiqarish va sutchilik tarmog'ini rivojlantirish ham bugungi kunda har bir mamlakatda muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ushbu maqolamizda sut chorvachiligi va unda tadbirkorlikni rivojlantirishda xorij tajribalaridan samarali foydalanish to'g'risida fikr yuritdik. Bunda aynan sut chorvachiligida kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning o'рни mamlakatimiz uchun ahamiyatlidir. Sababi mamlakatimizda yetishtiriladigan sutning 90 % atrofidagi ulushi dehqon va tomorqa xo'jaliklari ulushiga to'g'ri keladi.

Kalit so'zlar: chorvachilik, sutchilik, tadbirkorlik, Hindiston, Avstraliya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ЖИВОТНОВОДЧЕСКОЙ СЕТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА

Эшкуллова Хилола

Гулистанский государственный университет

Аннотация. В то время, когда население нашей планеты стремительно растет, потребность людей в продуктах питания возрастает все больше. Как и многие другие основные потребительские товары, производство молока и развитие молочной промышленности сегодня имеют большое значение в каждой стране. В данной статье мы обсудили эффективное использование зарубежного опыта в развитии молочного животноводства и предпринимательства. В связи с этим для нашей страны важна роль развития малого предпринимательства в молочном животноводстве. Причина в том, что около 90% молока, производимого в нашей стране, приходится на долю фермеров и домохозяйств.

Ключевые слова: животноводство, молочное животноводство, предпринимательство, Индия, Австралия.

USING FOREIGN EXPERIENCE IN THE LIVESTOCK NETWORK FOR DEVELOPING SMALL BUSINESS

Eshkulova Khilola

Gulistan state university

Abstract. At a time when the population of our planet is growing rapidly, people's need for food is increasing more and more. Like many other basic consumer goods, milk production and the development of the dairy industry are of great importance in every country today. In this article we discussed the effective use of foreign experience in the development of dairy farming and entrepreneurship. In this regard, the role of small business development in dairy farming is important for our country. The reason is that about 90% of the milk produced in our country comes from farmers and households.

Key words: animal husbandry, dairy farming, entrepreneurship, India, Australia.

Kirish.

Ma'lumki, chorvachilik mahsulotlari kundalik iste'mol qilishimiz zarur bo'lgan asosiy oziq – ovqat mahsulotlari hisoblanib, butun dunyo miqyosida mamlakatlar ushbu tarmoqni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratadi. Bugungi kunda mamlakatimizda chorvachilik tarmog'ida chorva mollari soni, go'sht va sut yetishtirish hajmi muttasill ijobiy tendensiyalar asosida ortib bormoqda. Lekin shunday bo'lsada, qayta ishlangan sut va go'sht mahsulotlarini mamlakatimizga import qilinish darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Bunda chorvachilik tarmog'ida yetishtirilayotgan mahsulotlar va ularni qayta ishlash tarmog'iga to'g'ridan – to'g'ri yo'naltirishda uzilishlar va tarmoqda bir qator muammo va kamchiliklar borligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu turdagi muammolarga samarali yechim topish va uni amamlga oshirish uchun aynan chorvachilik tarmog'i va ushbu yo'nalishda tadbirkorlik muhiti rivoj topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Chorvachilik tarmog'ini va shuningdek, sutchilik yo'nalishini rivojlantirish borasida ko'plab xorijlik va yurtimiz olimlari o'z izlanishlarini olib borgan bo'lib, bunda tarmoqni rivojlantirish uchun aynan xorij tajribalarini o'rganish va amaliyotga joriy etishning o'rni haqida o'zlarining ilmiy fikr – mulozalarini yuritib, tahlillarni amamlga oshirgandir. Качурина Екатерина Петровна o'z ilmiy ishlarida AQSh va Yevropa mamlakatlarining sut chorvachiligini rivojlantirish borasidagi tajribalaridan foydalanish to'g'risida (Качурина, 2021), yurtimiz olimlari va tadqiqotchilaridan Sadullayev Ulug'bek Norqulovich (2020) o'z ilmiy ishida Polsha va Gollandiya mamlakatlari tajribasidan, Abdullayeva Sevara Solijonovna "Sut yo'nalishidagi qoramolchilik tarmog'ini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida aynan "ekologik toza sut" ishlab chiqarishda Yevropa mamlakatlari tajribasidan foydalanish haqida o'z fikrlari va takliflarini keltirib o'tgandir.

Gollandiyaning Wageningen University and Research Centre universitetida chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish, veterinariya xizmatlari ko'rsatish sirlari, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni rivojlantirish masalalarida ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Shuningdek, Fransiyaning Agro Paris Tech nomli texnologiya va hayot universiteti go'sht va sut mahsulotlarining inson hayoti uchun xavfsizligini ta'minlashda chorva mollarini oziqlantirish, ularni turli kasallik va parazitlardan himoya qilish borasidagi xizmatlar turini rivojlantirishda zamonaviy ilm – fan natijalarini amaliyotga joriy qilish bilan shug'ullanadi (Ko'chchiyev, 2020).

Mozambik xalqaro ilmiy – tadqiqot instituti professori Moyo (2010): "Chorvachilik ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi turmush tarzida bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Ayniqsa, kambag'allik sur'ati yuqori bo'lgan hududlarda oziq – ovqat va ovqatlanish, bandlik, iqtisodiy va ijtimoiy ta'minotda uning o'rni va ahamiyati yuqoridir", deb ta'kidlagan edi.

Shuningdek, tadqiqotchi Oripovning (2011) ilmiy izlanishlari natijalarida fermerlarning moddiy – texnika ta'minoti va servis samaradorligini oshirishda raqobatbardosh firmalar, shirkatlarni rivojlantirish, xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, xizmat ko'rsatish tuzilmalariga moliya – kredit va soliqlar bo'yicha imtiyozlar yaratilishi muhimligi qayd etilgandir (Abruyev, 2018).

Hakimov (2005) o'z tadqiqotlarida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida respublikada chorvachilik mahsulotlari bozori shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan. Shu bilan bir qatorda tadqiqotchi tarmoqda yem – xashak bazasini mustahkamlash borasidagi iqtisodiy muammolarga, ozuqa mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tizimlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etishning bozor shakllari va ularning imkoniyatlarini yuksaltirish bo'yicha qator takliflar ishlab chiqqandir.


Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqotimiz davomida biz ushbu maqolada statistik ma'lumotlar tahlili, analitik tahli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalangan holda yurtimizda chorvachilik tarmog'i va uning samaradorligini oshirishda xorijiy mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanish borasida o'z izlanishlarimizni olib bordik. Bunda biz Hindiston va Avstraliya mamlakatlari chorvachilik tarmog'i bilan yaqindan tanishib chiqib ushbu mamlakatlar tajribasidan mamlakatimiz chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish uchun foydalanishga taklif etishni maqsad qilib oldik.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sut chorvachiligi qishloq xo'jaligining bir tarmog'i sifatida yetishtirilgan xom sutdan sut pishloq va yogurt kabi sut mahsulotlarini qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Biz ushbu maqolamizda dunyo bo'ylab sut ishlab chiqarishda yetakchi hisoblangan bir nechta mamlakatlarning sutchilik tarmog'i va uning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz. Bunday mamlakatlardan biri bu Hindistondir. Hindiston jahon miqosida sog'in sigirlar soni va yiliga ishlab chiqariladigan sut hajmi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. 2020 yil holatiga ko'ra sut va sut mahsulotlari umumiy qiymati mamlakat yalpi ichki mahsulotining taxminan 4.2 foizini tashkil etgan. 2019 yil ma'lumotlariga ko'ra esa Hindistonning sut sektori yiliga 4.9 foizga o'sib borayotgani va 2018 - 2019 yillarda mamlakatda qariyb 187.7 million tonna sut yetishtirilgan bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sutning miqdori 394 grammni tashkil etganligi e'lon qilingandir¹.

Hindistonda sigirlar mahsuldorligini oshirish uchun chorvalarni chatishtirish ishlari amalga oshiriladi. Bunda mahalliy zotlarni naslli qoramollar bilan chatishtirish ishlari uzoq yillardan buyon keng miqyosda olib boriladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, chatishtirilgan sigirlar mahalliy qoramol va bufalolarga qaraganda ko'proq sut ishlab chiqarish xususiyatga egadir. Shuningdek, ularning ozuqani sutga aylantirishda ham yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlangan.




1-rasm. Hindistonda sut ishlab chiqarish hajmi million tonnada²

¹ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Dairy_in_India

² <https://www.iasparliament.com/current-affairs/indias-dairy-sector>

Yuqoridagi rasmda Hindistonda sut ishlab chiqarishning yillik ko'rsatkichlari keltirib o'tilganidir. Bunda ko'rsatkichlar 1951 – 2021 yillar oralig'ini o'zida aks etgan bo'lib, faqat o'sish sur'ati kuzatilmoqdadir. Ushbu statistik ko'rsatkichlarning oxirgi 5 yilini tahlil qiladigan bo'lsak, 2016 yilda mamlakatda 146.31 mln tonna sut ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021 yilda bu ko'rsatkich 209.96 mln. tonnani tashkil etgan. Ushbu yillar oralig'ida umumiy sishlab chiqarilgan sut hajmi 63.65 mln tonnadan iborat bo'lib, umumiy o'sish sur'ati 144 % ni tashkil etmoqda.

BMTning "Oziq – ovqat va qishloq xo'jaligi" tashkiloti tomonidan sutning global miqyosda oziq – ovqat mahsuloti sifatidagi ahamiyatini e'tirof etish maqsadida 2001 yilda 1 iyuni "Butunjahon sut kuni" deb e'lon qilindi. Hindistonda ham "Milliy sut kuni" mavjud bo'lib, ushbu kun bayram sifatida 26 noyabr kuni nishonlanadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar va yaratilayotgan imkoniyatlar va shu bilan bir qatorda, sut sanoatini rivojlantirishda xususiy sektorning ulushi yildan-yilga ortib borayotganligi sababli mamlakatda kelgusi yillarda ham sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'sib borishi prognoz qilinmoqdadir. Quyida mamlakatning o'sib borayotgan sutchilik tarmog'ining yana bir ko'rsatkichi, ya'ni mamlakatda sut mahsulotlarini eksport qilish hajmi (mln. \$da) yillar kesimida keltirib o'tilganidir. Ushbu ko'rsatkichlardan ham ko'rib guvoh bo'lishimiz mumkinki, tarmoqda eksport hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda.




2-rasm. Hindistonda sut mahsulotlarining eksporti million dollarda³

2020 yilda Hindistonda sut mahsulotlari eksporti hajmi 186.71 mln \$ni tashkil etgan. 2021 va 2022 yillarda esa bu ko'rsatkich mos ravishda 201.37 va 391.39 mln \$ dan iborat bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. 2022 yilda 2021 yilga nisbatan eksport hajmi 190.02 mln \$ ga ortib shu yilgi o'sish sura'ti 194.4 ya'ni qariyb ikki baravarni tshkil etmoqda. Bunday o'sish sur'atlariga erishishga turtki bo'lish uchun mamlakatda bir qator rag'batlantiruvchi omillar ishlab chiqilganidir. Hindistonda fermerlarni sut chorvalarining mahalliy zotlarining mahsuldorligini ilmiy jihatdan oshirishga undash, kooperativ va sut ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish maqsadida "Milliy sut kuni" munosabati bilan topshiriladigan "Milliy Gopal Ratna" mukofoti joriy etilganidir. Bundan tashqari, hukumat o'z tashabbuslari bilan sut chorvachiligi infratuzilmasini rivojlantirish uchun muntazam ravishda o'z hissasini qo'shib boradi. Tarmoqni bardavom rivojlantirishga yo'naltirilgan Milliy sutchilik rejasini ishlab

³ <https://www.iasparliament.com/current-affairs/indias-dairy-sector>

chiqish, Jan Dhan Yojana va Start – up India tashabbusi kabi umumiy imkoniyatlarni kengaytrishga xizmat qiladigan sxemalarning yaratilganligi shular jumlasidandir [3].

Jahon bozorida o'zining yuqori sut mahsulotlari eksporti ko'rsatkichi bilan namoyon bo'ladigan yana bir mamlakat bu Avstraliyadir. Mamlakatda aynan sut sanoati 2022 yilgi ma'lumotlarga ko'ra 3 mlrd \$ lik sanoat bo'lib, u mol go'shti va bug'doy bilan birga qishloq xo'jaligida eng yuqori ulushga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. Sutchilik tarmog'ining qishloq aholisini ish bilan band qilish va oziq – ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi roli ham sezilarli darjada yuqori bilan ajralib turadi. Avstraliyaning yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, butun dunyoda ishlab chiqariladigan sutning kichik miqdori, ya'ni 2 % danda kamroq qismi unga tegishli bo'lsada, mamlakat dunyodagi eng yirik sut mahsulotlari eksportchilaridan biridir. Hozirgi kunda mamlakat miqyosida 1.5 mlndan ortiq sog'in sigirlar mavjud bo'lib, ulardan yiliga 9 mln metrik tonna artofida sut olinadi. Avstraliyada 8 ta sut ishlab chiqaruvchi hudud mavjud bo'lib, quyida ularning tarmoqdagi ulushi haqida ma'lumot keltirilgandir⁴.



3-rasm. Avstraliyada sut ishlab chiqarishda har bir shtatining ulushi % da (01/07/2023 - 31/01/2024 davr oralig'ida)⁵

Yuqoridagi rasmdan ko'rib guvohi bo'lishimiz mumkinki, mamlakatda eng yirik sut ishlab chiqarish Viktoriya ulushiga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni mamlakat miqyosida sutning 64 % ini aynan mana shu shtatda ishlab chiqariladi. Quyida keltirilgan jadvalda hududlar ulushining miqdordagi ifodasi bilan tanishishimiz mumkin.

Yuqoridagi jadvalda Avstraliya mamlakatining 6 ta shtatida yetishtiriladigan sut hajmi va uning o'tgan yilgi aynan shu davrga nisbatan ko'rsatkichlardagi o'sish va pasayish sur'atlari keltirib o'tilgandir. Bunda jadvalga e'tibor qaratadigan bo'lsak, shtatlarda ba'zi bir oylarda pasayish sur'ati kuzatilgandir. Masalan, Viktoriya shtatida iyul, avgust va sentabr oylarida 2022 yilning ayni shu oylariga nisbatan mos ravishda -1.3%, -1.0%, -0.5 % ga pasayish bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin bunda biz e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan jihati tanlab olingan davr umumiy holda qaralganda har bir shtat va mamlakat faqat o'sish sur'atiga erishganligidir. Ya'ni mamlakat miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, 2023 – 2024 yillarda tanlab olingan davrda 2022-2023 yillarning ayni shudavriga nisbatan +2.5 % ga o'sish kuzatilmoqdadir.

⁴ <https://www.veterinariadigital.com/en/articulos/dairy-industry-in-australia>

⁵ DairyAustralia.https://www.clal.it/en/mini_index.php?section=consegne-stati-australia

1-jadval

Avstraliya mamlakatining 6 ta shtatida yetishtiriladigan sut hajmi va uning o'tgan yilga nisbatan ko'rsatkichlardagi o'sish va pasayish sur'atlari⁶

| | Viktoriya | | Yangi Janubiy Uels | | Tasmaniya | | Janubiy Avstraliya | | G'arbiy Avstraliya | | Kvinslend | | Mamlakat miqyosida | |
|--|-------------------|---------------------|--------------------|---------------------|-------------------|---------------------|--------------------|---------------------|--------------------|---------------------|-------------------|---------------------|--------------------|---------------------|
| | Miqdor (mln litr) | O'sish sur'ati % da | Miqdor (mln litr) | O'sish sur'ati % da | Miqdor (mln litr) | O'sish sur'ati % da | Miqdor (mln litr) | O'sish sur'ati % da | Miqdor (mln litr) | O'sish sur'ati % da | Miqdor (mln litr) | O'sish sur'ati % da | Miqdor (mln litr) | O'sish sur'ati % da |
| Iyul 2023 | 381.350 | -1.3 | 84.691 | +4.9 | 19.791 | +0.5 | 31.522 | -1.7 | 28.982 | -0.3 | 24.140 | +8.4 | 570.475 | +0.0 |
| Avgust 2023 | 445.946 | -1.0 | 90.083 | +5.3 | 69.982 | +6.5 | 35.657 | +1.6 | 29.708 | +5.3 | 25.433 | +1.5 | 663.810 | +0.7 |
| Sentyabr 2023 | 525.147 | -0.5 | 91.552 | +2.1 | 84.153 | +3.1 | 43.232 | +0.0 | 31.348 | +4.6 | 26.068 | +4.2 | 801.499 | +0.5 |
| Oktyabr 2023 | 582.858 | +1.2 | 96.215 | +3.7 | 118.358 | +4.8 | 48.607 | -0.8 | 32.946 | +2.6 | 27.413 | +5.3 | 906.397 | +2.0 |
| Noyabr 2023 | 553.857 | +6.6 | 94.030 | +8.8 | 119.863 | +7.1 | 46.692 | +2.5 | 30.122 | 0.0 | 25.710 | +0.8 | 870.273 | +6.3 |
| Dekabr 2023 | 504.788 | +1.2 | 93.794 | +8.8 | 110.599 | +2.0 | 43.563 | +1.7 | 28.732 | +1.9 | 25.810 | +1.0 | 807.286 | +2.2 |
| Yanvar 2024 | 447.416 | +5.7 | 88.640 | +9.4 | 99.308 | +2.3 | 40.292 | +3.1 | 27.529 | +4.1 | 24.417 | -0.2 | 727.603 | +5.2 |
| 2023 – 2024 tanlab olingan davr oralig'ida | 3.441.369 | +1.8 | 639.003 | +6.1 | 589.055 | +4.0 | 289.565 | +0.9 | 209.367 | +2.6 | 178.991 | +2.9 | 5.347.342 | +2.5 |

⁶ DairyAustralia. https://www.clal.it/en/mini_index.php?section=consegne_stati_australia

Avstraliyada sut sanoati har jihatdan mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etganligi sababli tarmoqni barqaror tarzda rivojlanib borishini ta'minlash va nazorat qilish hukumatning diqqat markazida bo'ladi. Mamlakatda Dairy Australia (RDC) tadqiqot va ishlanmalar tashkiloti mavjud bo'lib, u o'z a'zolari va butun sanoat tamog'iga javobgar hisoblanadi. Tashkilot faoliyati butun sutchilik tarmog'i rivojiga qaratilgan bo'lib, uning asosiy strategic maqsadi quyidagilardan iboratdir.

- Fermer xo'jaliklarida sigirlarning sut mahsuldorligini oshirish;
- Qo'shimcha qiymatli va yuqori marjali bozorlarni keng miqyosda egallash;
- Avstraliya sut mahsulotlarining noyob xususiyatlari va afzalliklarini keng targ'ib qilish shular jumlasidandir⁷.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, sutchilik tarmog'i va unda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, soha samaradorligini oshirish uchun yuqorida biz o'rganib chiqqan Hindiston va Avstraliya mamlakatlarining tarmoqni rivojlantirish borasida amalga oshirayotgan ishlarini tahlil qilib shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, sutchilik tarmog'ini rivojlantirish boshqa bir qancha oziq – ovqat mahsulotlarini yetkazishga nisbatan uzoqroq davrni talab etadi. Shuningdek, sut chorvachiligini rivojlantirish uchun avvalo sigirlar naslini yaxshilash maqsadga muvofiqdir (Hindiston tajribasi). Bu orqali iste'molchilarni ehtiyojini ham sifat va miqdor jihatdan yuqori darajada qondirishga va shu bilan birgalikda, qoramollar ozuqa bazasidan samarali foydalanishga, tarmoqda faoliyat yurituvchilarning esa yuqori daromad olishiga erishish mumkin. Bunga qo'shimcha tarzda sut chorvachiligida yetishtirilayotgan sutdan samarali foydalanish uchun tarmoqda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish ya'ni mahsulotni qayta ishlashga, uni sanoatga yo'naltirishdagi yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga ham alohida e'tibor qaratmoq lozim (Avstraliya tajribasi). Bunda aynan Avstraliya mamlakatining sut yetishtirishda past ulushga ega bo'lgan bir sharoitda dunyoning yetakchi sut mahsulotlari eksportyori bo'lishiga asosiy sabab mamlakatda ishlab chiqariladigan sutdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yganligida va sut va sut mahsulotlari sanoatini yetarli darajada rivojlantirishga e'tibor qaratganligida ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda sut yetishtirish hajmi va qoramollar soni ijobiy tendensiyalar bilan oshib borayotgan bir sharoitda xorij tajribalaridan samarali foydalanish va ularni tarmoqda amalga oshirish mamlakatimizda kelgusida sut va sut mahsulotlarini yetishtirishda yuqori samaradorlikka erishishida o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Abruyev A.I. (2018) Agroservisni rivojlantirish asosida qoramolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - T.: -16 b.

Ko'chchiyev U.M. (2020) Chorvachilik xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy – uslubiy asoslarini takomillashtirish.

Moyo S., Swanepoel F.J.C. (2010) Multifunctionality of Livestock in Developing Communities S. Moyo1 and F.J.C. Swanepoel2 Produced by SUN MeDIA Bloemfontein 59 Brill Street, Westdene, Bloemfontein, South Africa, 9301 www.africansunmedia.co.za / www.sun-e-shop.co.za

Oripov M.A. (2011) O'zbekiston dehqonchiligida ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. - T.: - 257 b.

Sadullayev U.N. (2020) "Go'sht va sut yetishtirish sohasini modernizatsiyalashni rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi Phd dissertatsiyasi., –Toshkent.

Xakimov R. (2005) O'zbekiston Respublikasi chorvachilik mahsulotlari bozori va tarmoqda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'nalishlari. Monografiya. – T.:ChP Voyevodina V.N. – 124 b.

Качурина Екатерина Петровна (2021) Организационно-экономический механизм развития Малого и среднего бизнеса в молочной отрасли Животноводства АПК Челябинск.

⁷ The Australian Dairy Industry., The basics. pwc.com.au